

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA NUTQ RIVOJLANTIRISH METODLARI VA USULLARI

Boymirzayeva Dinora

SamDU Kattaqo'rg'on filiali talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqola orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutq o'rtirish mashg'ulotidagi metod va usullardan foydalanib bolalarning nutqini rivojlantirish, kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish hamda nutqdagi nuqsonlarni aniqlashga yo'l ochib beriladi.

Kalit so'zlar: nuqt, metodlar, savol-javob, ko'rgazmalilik, emmotsional holatlar, maqollar, ijtimoiylashuv.

So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora -tadbirlari to'g'risida"gi va boshqa bir qancha Prezident farmon va qarorlari tizimni tubdan isloh qilishga qaratilgan va bu ko'zga ko'rinadigan darajada amalga oshirilib kelinmoqda. Bundan tashqari bir qancha davlat dasturlari ta'lim tizimining ilk bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimini, ta'lim jarayonini samarali tashkil qilishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilib amaliyotga tadbir qilinmoqda.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim allaqachon davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shu bois ta'lim tizimining ilk bo'g'iniga doir har qanday muammo davlat miqyosida hal qilinmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lim tizimi tarbiyachilari bugungi kunda bolalarni maktabga tayyorlashning bazaviy dasturi hamda tajriba-sinov jarayonida yuqori baholangan o'quv-metodik materiallarga ega. Mazkur dasturda bolalarni jismoniy rivojlantirish, nutq va tafak kurini shakllantirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish kabi turli masalalar qamrab olingan. Maktabgacha ta'lim tizimining ilmiy-texnik nazariyasini shakllantirishda davlat dasturlariga muvofiq ta'limiy, tarbiyaviy maqsadlarga yo'naltirilgan mashg'ulotlarning ahamiyati kattadir. Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalariga muvofiq keluvchi dasturlar bilan birga o'quv mashg'ulotlarining Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish ularning intellektual, ijodiy va ijtimoiy o'sishini ta'minlovchi muhim omildir. Nutqning rivojlanishi tarbiyachining pedagogik mahorati, metod va usullarning to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuvlar va samarali metodlar tahlil qilinadi. Maktabgacha yoshda bola nutqi rivojlanishi psixofiziologik o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq. Bu davrda bolalar so'z boyligini oshirish, grammatik tuzilmani o'zlashtirish va talaffuzni rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishadilar. Ushbu jarayonda

o'yin, suhbat, hikoya qilish kabi faoliyat turlari muhim ahamiyatga ega. maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutqni rivojlantirish tamoyillari, unga qo'yilgan talablar, usullari, shakllari, nutqni rivojlantirish muammolari, barkamol avlod tarbiyasida nutqni to'g'ri shakllantirish yo'llari va ish samaradorligi. Zamonaviy pedagogik texnologiya. Ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, va uning tamoyillari, qonuniyatlari. Maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarda og'zaki nutqni rivojlantirish ishiga tayyorlashdan iboratdir.

Bolalar nutqini rivojlantirishda quyidagi metodlar asosiy rol o'ynaydi:

O'yin metodi: Bolalarning e'tiborini jalb qilish va qiziqishini oshirish uchun qo'llanadi.

Vizual metod: Rasm, kartochkalar va boshqa ko'rgazmali vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Ekskursiyalar metodi: Atrof-muhit bilan tanishish orqali so'z boyligini kengaytiradi.

Interfaol metodlar maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda samaradorlikni oshiradi.

Masalan:

"Savol-javob" usuli: Bolalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

Rolli o'yinlar: Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish va ijtimoiy tajribani oshirish uchun xizmat qiladi.

O'qituvchi va ota-onalar hamkorligida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

Oila a'zolari bilan birgalikda hikoyalar o'qish va tahlil qilish.

Nutq rivojlantirishga qaratilgan oilaviy o'yinlarni tashkil qilish.

Ota-onalarga bolalarning nutqini kuzatish va to'g'ri yo'naltirish bo'yicha tavsiyalar berish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda pedagogning ijodiy yondashuvi va to'g'ri metodlarni qo'llay bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy va amaliy yondashuvlarni uyg'unlashtirish orqali bolalar nutqida sezilarli yutuqlarga erishish mumkin. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda nutqni tuza bilish darajasini ko'tarish maktabgacha ta'lim tizimi metodistlari oldidagi asosiy vazifalardandir. Shuni hisobga olgan holda tevarak-atrofni o'rganishda maktabgacha tarbiya yoshidagi nutqni rivojlantirishni ta'minlaydigan omillarni aniqlashdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning yuqori darajasiga quyidagilar evaziga erishilishi mumkin ekan:

- tilning adabiy me'yorlari va qoidalaridan xabardorlik;
- o'z fikr-mulohazalarini erkin bayon eta olish;
- muloqotga kira bilish, kattalar va tengdoshlar bilan muomala qila olish;
- suhbatdoshni tinglay bilish, so'rash (savollarni to'g'ri bera olish), javob berish, e'tiroz bildirish, zarur bo'lganda esa tushuntirish, izohlash. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar dialogik nutqni nisbatan oson o'rganadilar. Bu quyidagilar bilan ifodalanadi: bolalar uyda, bolalar bog'chasida doimo dialogik nutqni eshitadi. Bundan tashqari, bolalar o'zaro muloqotda bo'lib, asosan dialogik nutqdan foydalanadilar. Bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi

birgalikda uyushtiriladigan o'yinlarda yuqori darajada shakllanadi. Ijtimoiy foydali mehnat va o'qish kabi faoliyat turlari tobora ko'proq rol o'ynay boshlaydi. Shu bilan birga, tengdoshlariga nima bilandir ko'mak berish, ular uchun biron-bir foyda yetkazish maqsadida namoyon bo'ladigan mehnatning ijtimoiy motivlari yanada ahamiyatliroq, ya'ni sezilarli bo'lib qoladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar o'z xulqlarini yanada asosliroq boshqara boshlaydilar. Bolalar tarbiyachisi tomonidan ular oldiga qo'yilgan vazifalar ma'nosini aniq biladilar, topshiriqlarni mustaqil va nuqsonsiz bajarish uchun astoydil intiladilar. Bularning barchasi nutqni rivojlantirishning muhim shart-sharoitlari bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, ta'limda biror-bir yutuqqa erishish tarbiyaga bog'liq. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolalarning madaniy xulq-odatlari shakllantirishga muayyan darajada e'tibor berish lozim. Ularda yaxshilik, kamtarlik, adolatlilik, vijdonlilik to'g'risidagi axloqiy tasavvurlarni tarkib toptirish kerak. Tilni to'g'ri o'rganish, uning grammatik tuzilishiga e'tibor berib so'zlashish, bolalarda erkin muhokama yuritish, savollar berish, boshqalardan eshitgan fikrlari yuzasidan xulosalar chiqarish, narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'lanishning turli ko'rinishlarini anglab yetishga olib keladi.

Maktabgacha tarbiya tashkilotida sog'lom, tabiiy muhit yaratish, ularning to'g'ri muomalaga kirishishi, boshqalar bilan gaplashish ishtiyoqining ortishiga turtki bo'ladi. Bolalarning tevarak-atrofni kuzatib borishi natijasida talaffuzi ham ijobiy tomonga o'zgara boshlaydi; tovushlarni to'g'ri talaffuz qila boshlaydilar, jumlar mazmuni kengaya boradi, grammatik tomondan gapni to'g'ri tuza boshlaydilar, lug'at boyligi ham ortadi. Bolalarning o'zlari kichik-kichik hikoyalar tuza boshlaydilar va bu hikoyalarni erkin bayon qila oladilar. Ularda kattalar bilan muloqotga kirishish, o'z fikrini erkin bayon etish kabi xislatlar paydo bo'la boshlaydi. Shunga ko'ra bolalar nutqida tovush madaniyatini takomillashtirish, atrofda narsalar, predmetlar, hodisalar nomini ifodalovchi so'z boyligini kengaytirish, faollashtirish, monologik nutqning oddiy shakllariga rioya etish, o'z fikrini grammatik jihatdan to'g'ri va aniq ifodalay olish ko'nikmalarini paydo qilish muhim va zarur hisoblanadi. Bu talablar bolalarda borliqni, tevarak-atrofni idrok etish, uni tushunish, his etish, hikoyalar tuzish, o'z fikrini bayon qila olish, ifodali o'qish faoliyati jarayonida tarkib toptiriladi. Ma'lumki, bog'lanishli nutqda bolalarning atrofda narsalar bilan voqeahodisalar ta'siri natijasida o'zaro munosabati, aloqasi ifodalanadi. Bu ifoda bir yoki bir necha jumalarda o'z aksini topishi mumkin. Nutqning shakllanishida bolaning tevarak-atrof bilan munosabati, muomala shakli katta rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori. T:2016-yil.
2. Karimova N. "Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi rivojlanishi". Toshkent, 2020.
3. Usmonov M. "Nutq pedagogikasi va metodikasi". Samarqand, 2018.

4. Xolmurodov D. “Bolalar bilan ishlashda innovatsion yondashuvlar”. Toshkent, 2019.
5. D.R. Babayeva „Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi” Toshkent, 2018